Abduraxmonov Xudoynazar Abdirayimovich (Qarshi davlat Texnika universiteti dotsenti;
E-mail: suhratabdurahmonov120@gmail.com; UO'K: 811.111'367.622.14)

O'ZBEK TILIDAGI ABSTRAKT OTLARNING PRAGMATIK VA SEMANTIK XUSUSIYATLARI

Annotatsiya. *Mazkur maqolada o'zbek tilida ot so'z turkumining leksik-semantik xususiyatlari hamda ularni tasniflash tamoyillari tahlil qilinadi. So'zlarni turkumlarga ajratishning leksik-semantik, morfologik va sintaktik asoslari yoritilib, otlarning atoqli va turdosh, yakka va jamlovchi, muayyan va mavhum kabi ma'no turlari ilmiy jihatdan tavsiflanadi. Shuningdek, mavhum otlarning ma'noviy guruhlari alohida ko'rib chiqilib, ularning nutq jarayonidagi qo'llanishi va pragmatik xususiyatlari izohlanadi. Tadqiqot natijalari otlarni guruhlashtirish jarayonida lug'aviy ma'noning yetakchi omil ekanini ko'rsatadi hamda mavhum otlarni tizimli tasniflashning nazariy va amaliy ahamiyatini asoslaydi. Shu nuqtayi nazardan, ushbu maqolada o'zbek tilidagi ot so'z turkumining tasnif tamoyillari hamda mavhum otlarning ma'noviy guruhlari ilmiy tahlil qilinadi.*

Kalit so'zlar: *abstrakt ot, leksik-semantik tasnif, semantik guruh, ma'noviy guruh, tilshunoslik, pragmatika, semantik talqin, milliy-madaniy component, omil.*

Абдурахманов Худойназар Абдираимович (Каршинский государственный технический университет, доцент)

ПРАГМАТИЧЕСКИЕ И СЕМАНТИЧЕСКИЕ СВОЙСТВА АБСТРАКТНЫХ СУЩЕСТВИТЕЛЬНЫХ В УЗБЕКСКОМ ЯЗЫКЕ

Аннотация. *В данной статье анализируются лексико-семантические особенности частей речи существительных в узбекском языке и принципы их классификации. Выделены лексико-семантические, морфологические и синтаксические основы деления слов на категории, научно описаны типы значений существительных, такие как именительный и прилагательный, единственное и собирательный, специфический и абстрактный. Также отдельно рассмотрены семантические группы абстрактных существительных, объяснено их использование в речевом процессе и прагматичесие особенности. Результаты исследования показывают, что лексическое значение является ведущим фактором в процессе группировки существительных и обосновывают теоретическую и практическую значимость систематической классификации абстрактных существительных. С этой точки зрения, в данной статье научно анализируются принципы классификации частей речи существительных в узбекском языке и семантические группы абстрактных существительных.*

Ключевые слова: *абстрактное существительное, лексико-семантическая классификация, семантическая группа, семантическая группа, лингвистика, прагматика, семантическая интерпретация, национально-культурный компонент, фактор.*

Abdurakhmanov Khudoynazar Abdiraimovich (Karshi State Technical University, Associate Professor)

PRAGMATIC AND SEMANTIC PROPERTIES OF ABSTRACT NOUNS IN THE UZBEK LANGUAGE

Annotation. *This article analyzes the lexical-semantic features of the noun word class in the Uzbek lan-guage and the principles of their classification. The lexical-semantic, morphological and syntactic foundations of dividing words into categories are highlighted, and the types of meanings of nouns such as nominative and adjectival, singular and collective, specific and abstract are scientifically described. Also, the semantic groups of abstract nouns are considered separately, and their use in the speech process and pragmatic features are explained. The results of the study show that the lexical meaning is the leading factor in the process of grouping nouns and substantiate the theoretical and practical importance of the systematic classification of abstract nouns. From this point of view, this article scientifically analyzes the principles of classification of the noun word class in the Uzbek language and the semantic groups of abstract nouns.*

Keywords: *abstract noun, lexical-semantic classification, semantic group, semantic group, linguistics, pragmatics, semantic interpretation, national-cultural component, factor.*

Kirish. Til millatning ma'naviy boyligi, tafakkuri va madaniy merosini o'zida mujassam etgan muhim ijtimoiy hodisadir. O'zbek tili ham boy lug'aviy tarkibi va mukammal grammatik tizimi bilan ajralib turadi. Til tizimida so'z turkumlarini ilmiy asosda o'rganish, ularning leksik va grammatik xususiyatlarini aniqlash tilshunoslikning dolzarb masalalaridan biri hisoblanadi.

So'z turkumlari ichida ot so'z turkumi alohida o'rin egallaydi, chunki u borliqdagi predmet, hodisa va tushunchalarni nomlaydi. Xususan, otlarning leksik-semantik jihatdan tasnifi, ularni muayyan va mav-

hum guruhlarga ajratish, shuningdek, mavhum otlarning ma'noviy xususiyatlarini aniqlash nazariy va amaliy ahami-yatga egadir. Mazkur maqolada o'zbek tilidagi ot so'z turkumining tasnif tamoyillari hamda mavhum otlarning ma'noviy guruhlari tahlil qilinadi.

Adabiyotlar tahlili. O'zbek tilshunosligida so'z turkumlari, xususan, ot so'z turkumining grammatik va leksik-semantik xususiyatlari masalasi bir qator olimlar tomonidan atroflicha o'rganilgan. So'zlarni turkumlarga ajratish tamoyillari, ularning nazariy asoslari hamda tasnif mezonlari yuzasidan dastlabki mukammal ilmiy qarashlar akademik Abdurauf Fitrat va keyingi davr tilshunoslari tomonidan ilgari surilgan. Shuningdek, G'afur Abdurahmonov va boshqa tilshunoslarning ilmiy ishlarida otlarning semantik guruhlari, ayniqsa, mavhum otlarning ma'noviy xususiyatlari tahlil qilingan. Ularda mavhumlik kategoriyasi ko'proq falsafiy va mantiqiy tushunchalar bilan bog'liq holda izohlanadi hamda sezgi a'zolari orqali idrok etilmaslik mezoni asosiy belgi sifatida ko'rsatiladi.

Rus tilshunosligida mavhum otlar masalasi kengroq tadqiq qilingan bo'lib, ularning semantik guruhlari, so'z yasalish modellari hamda nutqdagi funksional xususiyatlari alohida o'rganilgan. Masalan, Viktor Vinogradov ishlarida otlarning leksik-grammatik kategoriyalari tizimli ravishda tahlil qilinib, mavhum otlarning nutqdagi uslubiy imkoniyatlariga e'tibor qaratilgan.

Ingliz tilshunosligida ham abstract nouns (mavhum otlar) alohida semantik guruhlarga ajratilib, ularning konseptual va kognitiv xususiyatlari o'rganilgan. Bu yondashuv mavhum tushunchalarning inson tafakkuri bilan uzviy bog'liqligini ko'rsatadi hamda ularni semantik maydon doirasida tadqiq etish imkonini beradi.

Tahlil qilingan manbalar shuni ko'rsatadiki, o'zbek tilshunosligida otlarning umumiy tasnifi yetarlicha o'rganilgan bo'lsa-da, mavhum otlarning ma'noviy guruhlarga tizimli ravishda ajratilishi hamda ularning prag-matik xususiyatlarini kompleks o'rganish masalasi hali to'liq tadqiq etilmagan. Shu bois mazkur maqolada mavhum otlarni leksik-semantik asosda guruhlashtirish hamda ularning nutq jarayonidagi o'rni va funksional imkoniyatlarini aniqlashga alohida e'tibor qaratiladi.

Tadqiqot metodologiyasi. Mazkur tadqiqotda o'zbek tilidagi ot so'z turkumining leksik-semantik xu-susiyatlarini aniqlash hamda mavhum otlarni ma'noviy guruhlarga ajratish maqsadida bir nechta ilmiy metodlardan foydalanildi. Avvalo, tavsifiy (deskriptiv) metod asosida otlarning mavjud tasniflari o'rganildi va ilmiy manbalar tahlil qilindi. So'zlarning lug'aviy ma'nosi hamda grammatik xususiyatlarini aniqlashda leksik-se-mantik tahlil usuli qo'llanildi. Muayyan va mavhum otlarning o'xshash hamda farqli jihatlarini ochib berishda qiyosiy-tahliliy metoddan foydalanildi. Mazkur metodlar otlarning ma'noviy tasnifini tizimli ravishda yoritish va mavhum otlarning semantik hamda pragmatik xususiyatlarini aniqlash imkonini berdi.

Tahlillar va natijalar. Jahondagi boy, qadimiy va betakror tillardan biri bo'lgan o'zbek tili xalqimiz uchun milliy ma'naviyatimiz, o'zligimiz va mustaqil davlatchiligimiz timsolidir. Tilimizni bebaho boylik va buyuk qadriyat sifatida asrab-avaylash, qadrlash va rivojlantirish har bir o'zbekning burchidir. Shu ma'noda, so'zlarni turkumlarga ajratish, ularning leksik-grammatik jihatlariga ko'ra o'xshash va farqli jihatlarni aniqlash tilshunoslik ilmida muhim ahamiyatga egadir. So'zlarning ma'no va grammatik xususiyatlarining o'xshashligiga qarab guruhlarga ajratilishi so'z turkumlari deyiladi. So'zlarni turkumlarga ajratish: a) leksik-semantik; b) morfologik; d) sintaktik tamoyillar asosida amalga oshadi. Birinchi tamoyilga ko'ra, so'zlarni guruhlarga ajratish ularning lug'aviy ma'nolariga tayanadi. Bunda shaxs yoki predmetni ifodalovchi so'zlar otlar, ularning belgisini bildiruvchi so'zlar sifatlar, harakat va holatni bildiruv-chi so'zlar fe'llar, uning belgisini bildiruvchi so'zlar ravishlar, miqdorni bildiruvchi so'zlar sonlar kabi turkumlarga ajratiladi. Leksik-semantik tamoyilda yordamchilar lug'aviy ma'noga ega emaslik belgisiga ko'ra guruhlanadi.

So'zlarni turkumlarga ajratishning sintaktik tamoyili ularning gap tarkibida aksariyat hollarda qanday sintaktik vazifa bajarishiga e'tiborni qaratishni anglatadi. Masalan, ot so'z turkumi gap tarkibida, asosan, ega va to'ldiruvchi vazifasida, sifat turkumiga oid so'zlar sifatlovchi-aniqlovchi, ravish turkumiga oid so'zlar hol, fe'l turkumiga oid so'zlar kesim vazifasini bajaradi. Bu so'zlar anglatadigan lug'aviy ma'no va ularning grammatik xususiyatlariga bog'liq, albatta. Ammo bu tamoyil ham so'zlarni turkumlarga ajratish uchun mukammal tamoyil sifatida qaralishi maqsadga muvofiq emas. Chunki konversiya (bir turkum so'zining boshqa turkumga ko'chib o'tishi), bir turkum so'zining boshqa turkum vazifasini vaqtincha bajarishi (otlashish, sifatlashish, fe'lning sifatdosh, ravishdosh, harakat nomi shakllarining tegishlicha, sifat, ravish va ot vazifasini bajarishi) kabi lingvistik hodisalar bu tamoyilning samaradorligini pasaytiradi.

Tilda mavjud so'zlar uch katta guruhga (mustaqil, yordamchi, alohida olingan so'zlar) ajratilgandan keyin umumiy grammatik ma'nosiga ko'ra, alohida turkumlarga ajratiladi. Natijada so'zlar umumiy grammatik ma'nosiga ko'ra, o'n ikkita turkumga bo'linadi (fe'l, ot, sifat, son, ravish, olmosh,

ko‘makchi, bog‘lovchi, yuklama, undov, modal va taqlid so‘zlar). Bu turkumlarning har biri so‘zlarning leksik-grammatik xususiyatlariga ko‘ra, muayyan ma’noviy guruhlarga bo‘linadi. Ta’kidlanganidek, bu ma’noviy guruhlarning ba’zilari so‘zning leksik xususiyatlariga tayansa, ba’zilari uning leksik xususiyatlariga asos-lanadi. Xuddi shuningdek, tadqiq qilayotganimiz ot so‘z turkumi ham turli xususiyatlarga ko‘ra bir nechta ma’no turlariga ajratiladi. Otlarni tasniflashda ularning grammatik xususiyatlarni muayyanlashtiruvchi leksik-semantik belgilarga asosiy e’tibor qaratiladi. O‘zbek tilida otlar quyidagicha tasniflanadi:

1) bir turdagi predmetlarning umumiy nomini yoki ulardan faqat bittasini atab kelishiga ko‘ra: a) atoqli otlar; b) turdosh otlar [1]. Bunda atoqli otlar bir turdagi narsalarning bittasini nomlab kelsa (shaxs, narsa-buyum, o‘rin-joy, suv havzalari, samoviy jismlar, hayvonlar kabilarga atab qo‘yilgan nomlar), turdosh otlar bir turdagi narsalarning umumiy nomini bildiradi (odam, o‘simlik, hayvon, narsa-buyumlarning umumiy nomi). Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, atoqli otlar ham, turdosh otlar ham o‘z ichida bir nechta lug‘aviy ma’no turlarga bo‘linadi. Bunda otlarning nimani nomlab kelishi muhim hisoblanadi;

2) bir turdagi predmetning yakka o‘zini yoki ularning majmuini ifodalashiga ko‘ra otlar ikkiga bo‘linadi: a) yakka otlar; b) jamlovchi otlar [2]. Bunda yakka otlar bir turdagi predmetlarning yakka o‘zini ifodalaydi. Masalan, *olma* so‘zi aytilganda yoki yozilganda tinglovchi tasavvurida mevalarning jami gavdalanmaydi, balki bitta meva ko‘z oldiga keladi. Jamlovchi otlar esa bir turdagi predmetlarning jamini bildiradi. Masalan, xalq (odamlarning jami), armiya (askarlarning jami); sinf (o‘quvchilarning jami) kabi so‘zlar shaxslarning yoki narsalarning jamini bildiradi;

3) sezgi a’zolariga ta’siriga ko‘ra, otlar ikki guruhga bo‘linadi: a) muayyan otlar; b) mavhum otlar [3]. Bunda muayyan otlarni sezgi a’zolari yordamida his etish mumkin (ko‘rish, paypaslash) bo‘lsa, mavhum otlarni sezgi a’zolari vositasida his etib bo‘lmaydi. Mavhum otlarni ko‘rish, paypaslash mumkin emas, moddiylikdan xoli predmetlarni anglatadi. Biz otning ma’noviy guruhlarini ajratishda “predmet” so‘zini keng ma’noda qo‘llashni ma’qul topdik. Bu so‘z ba’zi o‘rinlarda shaxsni ham anglatishini ta’kidlab o‘tish lozim.

Ot so‘z turkumini ma’noviy guruhlarga ajratish, bunda asos vazifasini bajaruvchi vositalar tahlili shuni ko‘rsatadiki, tasniflash jarayonida otning nimani anglatishi, ya’ni, leksik jihatlari muhim ahamiyat-ga ega. Bu shuni anglatadiki, otlarni tasniflashda so‘z lug‘aviy ma’nosining u yoki bu jihati (atoqlilik, turdoshlik; yakkalik, jamlovchilik; muayyanlik, mavhumlik) asos vazifasini bajaradi.

O‘zbek tilida muayyan otlar aynan nimani ifodalashiga ko‘ra tadqiqot, darslik va qo‘llanmalarda bir necha turlarga bo‘lingan: “Muayyan ot quyidagi lug‘aviy ma’no turlariga bo‘lindi:

1. Modda nomi: *oltin, kumush, qum, suv.*
2. Shaxs tavsifi nomi: *yigit, chol, o‘zbek, tojik, cho‘loq, kasal, ota, ona.*
3. Buyum nomi: *qalam, kitob, cho‘mich, kosa, gilam, sholcha.*
4. O‘simlik nomi: *daraxt, buta, o‘t, jiyda, ildiz.*
5. O‘rin-joy nomi: *qishloq, shahar, sahro, adir.*
6. Miqdor nomi: *misqol, tonna, botmon, chaqirim.*
7. Tashkilot va muassasa nomlari: *maktab, universitet, do‘kon, bozor.*
8. Vaqt-payt nomi: *kun, kecha, tong, fasl* [3].

Mavhum otlarni ham guruhlarga ajratishda muayyan otlardagi kabi yondashuv maqsadga muvofiq bo‘ladi. Ya’ni, ot ifodalayotgan tushunchaga, boshqacha aytganda, uning lug‘aviy ma’nosiga e’tibor qaratish lozim. Bunda, shuningdek, xorij tilshunosligi tajribasiga ham tayanish lozim bo‘ladi. Chunki ingliz va rus tilshunosligida mavhum otlar bir nechta guruhlarga bo‘lib o‘rganiladi [4]. Bu, ayniqsa, ingliz va rus tillari ona tili bo‘lmagan shaxslar uchun ot so‘z turkumi tahsilini yengillashtiradi. Sezgi a’zolariga ta’sir qilmaydigan tushunchalar haqida tasavvurni shakllantiradi, ularni his qilishga ko‘maklashadi. Deyarli, hamma so‘zni tarjima qilish mumkin bo‘lganligi kabi, o‘zbek tilidagi mavhum otlarni guruhlashtirishda ularning tarjimalariga ham e’tibor qaratishga harakat qildik [6]. Sanalganlar asosida o‘zbek tilidagi mavhum otlarni quyidagi guruhlarga bo‘lish mumkin bo‘ladi:

1. His-tuyg‘u bildiruvchi mavhum otlar: *sevgi, ishonch, nafrat, qayg‘u, sog‘inch, muhabbat.*
2. Holat (shaxs yoki narsaning doimiy belgisi) bildiruvchi mavhum otlar: *xotirjamlik, sokinlik, rostgo‘ylik.*
3. Intellektual faoliyatni bildiruvchi mavhum otlar: *orzu, g‘oya, tafakkur, tushuncha, tasavvur.*
4. Tabiat bilan bog‘liq tushunchalarni ifodalovchi mavhum otlar: *gravitatsiya, chaqmoq, fazo, gaz.*
5. Kasallik nomlarini bildiruvchi mavhum otlar: *diabet, tif, sil, kariyes, gripp, saraton.*

6. Ilm-fanga oid atamalarni anglatuvchi mavhum otlar: *kimyo, fizika, matematika, adabiyot, kuch.*

7. Diniy tushunchalarni ifodalovchi mavhum otlar: *shayton, ruh, arvoh.*

8. Faqat tasavvur qilish mumkin bo‘lgan boshqa tushunchalarni ifodalovchi mavhum otlar: *xayol, surur, g‘alaba, mag‘lubiyat, subut, og‘riq, rohat.*

Mavhum otlarni guruhlashtirish dunyoning ko‘pgina tillarida amalga oshirilgan. O‘zbek tilida mavhum otlarni guruhlashtirish ularning jonli nutqning juda ko‘p o‘rinlarida qo‘llanishi sababli juda muhim hisoblanadi. Bu turdagi otlarning har bir nutq uslubida qo‘llanishi mumkinligi masalaning dolzarbligini oshiradi. Tadqiqot davomida mavhum otlarni dastlabki sakkiz guruhga ajratilishi kompyuter dasturlarida tabiiy tilni modellashtirish jarayonida muhim ahamiyat kasb etadi. Bu tipdagi otlarning, odatda, nutq jarayomnidagi ko‘chma ma’noda qo‘llanishi ularning har bir ma’nosi qaysi nutq vaziyatida, qanday suhbatdoshlar tomonidan qo‘llanishi mumkinligi haqidagi ma’lumotlarning qimmatliligini oshiradi. Shu sababli mavhum otlarni pragmatik nuqtayi nazardan ham tekshirish zarurati paydo bo‘ladi. Shu sababli mavhum otlarni dastlabki guruhlashtirish, lug‘aviy, ma’noviy turlarga ajratish muhim sanaladi.

Xulosa. Mazkur tadqiqot natijalari o‘zbek tilida ot so‘z turkumini tasniflashda leksik-semantik mezon yetakchi omil ekanini yana bir bor tasdiqlaydi. Otlarning atoqli va turdosh, yakka va jamlovchi, muayyan va mavhum kabi ma’noviy turlarga ajratilishi ularning lug‘aviy ma’nosi bilan bevosita bog‘liq bo‘lib, grammatik xususiyatlarini aniqlashtirishda muhim nazariy asos bo‘lib xizmat qiladi.

Tahlillar shuni ko‘rsatdiki, ayniqsa, mavhum otlarni ma’noviy guruhlarga tizimli ravishda ajratish ularning semantik tabiatini chuqurroq yoritish, nutq jarayonidagi funksional imkoniyatlarini belgilash hamda pragmatik xususiyatlarini aniqlash imkonini beradi. Mavhum otlarning guruhlanishi ularni o‘qitish metodikasini takomillashtirish, lingvistik tadqiqotlarni boyitish hamda tabiiy tilni modellashtirish jarayonlarida samarali qo‘llash uchun nazariy zamin yaratadi. Shu bois ot so‘z turkumini, xususan, mavhum otlarni leksik-semantik va pragmatik jihatdan izchil o‘rganish o‘zbek tilshunosligining dolzarb yo‘nalishlaridan biri sifatida ilmiy ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

(1). Нурмонов А., Шаҳобиддинова Ш., Искандарова Ш. ва бошқ. Ўзбек тилининг назарий грамматикаси, Тошкент, “Янги аср авлоди”, 2001, 182-бет.

(2). Қиличев Э. Ҳозирги ўзбек адабий тили. Бухоро, Бухоро университети, 1999, 152-бет.

(3). Sayfullayeva R., Mengliyev B. va boshq. Hozirgi o‘zbek adabiy tili. Darslik, Toshkent, “Fan va texnologiyalar”, 2010, 108-бет.

(4). G‘apporov M., Qosimova R. Ingliz tili grammatikasi. Toshkent, “Turon-Iqbol”, 110-бет; http://grammar tei.com. abstraktnye sushhestvitelnye v anglijskom yazyke obrazovanie abstraktnyx sushhestvitelnyx/

(5). Турсунов У., Мухторов А., Раҳматуллаев Ш. Ҳозирги ўзбек адабий тили. Тошкент, “Ўзбекистон”, 1992, 213-бет.

(6). https://ru.wikipedia.org/wiki/Гипоним_и_гипероним

(7). http://grammar-tei.com/ abstraktnye sushhestvitelnye v anglijskom yazyke-obrazovanie abstraktnyx sushhest vitelnyx/

(8). https://uz.wikipedia.org/wiki/Abstraksiya

Axrarova Fotima Baxramovna (O‘zbekiston Milliy universiteti dotsenti (PhD)

FRAZEOLOGIK MA’NONING KONNOTATIV TOMONI

Annotatsiya. *Konnotatsiya semantik-pragmatik munosabatlar bilan bog‘liqligi o‘zbek tilidagiga qaraganda fransuz tilida frazeologik holati har tomonlama ahamiyatga ega. Ijtimoiy hayotning murakkablashishi natijasida shaxslararo va ommaviy kommunikatsiyalarning tabiati konnotatsik munosabatlarda o‘zgardi. Matnlarni yetarli darajada tashkil etish va talqin qilish, shuningdek, qabul qiluvchi tomonidan to‘g‘ri tushunish zarurati jamiyatni xabardor qilish, ommaviy qabul qiluvchiga tashqi dunyo to‘g‘risida eng to‘liq va to‘g‘ri rasmiylashtirilgan ma’lumotlarni yetkazish ehtiyojidan kelib chiqadi.*

Kalit so‘zlar*: konnotatsiya, semantik-pragmatik, frazeologiya, kommunikatsiya, subyektiv matn.*

Ахрарова Фотима Бахрамовна (доцент Национального университета Узбекистана (PhD)

КОННОТАТИВНАЯ СТОРОНА ФРАЗЕОЛОГИЧЕСКОГО ЗНАЧЕНИЯ

Аннотация. *Связь коннотации с семантико-прагматическими отношениями является более всеобъемлющей аксиомой фразеологического состояния во французском языке, чем в узбекском. В результате сложностей социальной жизни характер межличностных и массовых коммуникаций изменился в плане коннотационных отношений. Потребность в адекватной организации и интер-*